

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**G'AFUROV UMIDJON BAHODIR O'G'LI**

**banklarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi  
kurashish amaliyotining moliyaviy mexanizmlari**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025 yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
economical sciences**

**G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li**

Banklarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotining moliyaviy mexanizmlari..... 3

**Гафуров Умиджон Баходир угли**

Финансовые механизмы практики противодействия легализации доходов, полученных преступным путем, в банках..... 29

**Gafurov Umidjon Bahodir ugli**

Financial mechanisms of the practice of combating the legalization of criminal proceeds in commercial banks..... 57

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 62

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**G‘AFUROV UMIDJON BAHODIR O‘G‘LI**

**BANKLARDA JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI  
LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASHISH AMALIYOTINING  
MOLIYAVIY MEXANIZMLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025 yil**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.2.PhD/Iqt4066 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)ga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Norov Akmal Ruzimamatovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Xusanov Durbek Nishonovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Dusiyarov Sherzod Xolmuratovich  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi  
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 22/29.12.2023.1.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «09» 08 soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7-uy..  
Tel: +998 95 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning. Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (80 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel: +998 95 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «25» 07 kuni tarqatildi.  
(2025-yil «26» 04 dagi 20 raqamli reestr bayonnomasi).



**N.X.Jumaev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**A.T.Absalamov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**D.A.Raxmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda bank sektori yuqori darajada tartibga solinuvchi tarmoq bo‘lib, uning barqarorligi mamlakat to‘lov tizimi uchun ham juda dolzarb hisoblanadi. Bank faoliyatini tartibga solish, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi talablar va qoidalarga rioya qilish tijorat banklari uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga jahon hamjamiyati tomonidan jinoyatchilarga qarshi kurashish chora-tadbirlari noqonuniy daromadlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois jinoiy shaxslarda «noqonuniy» pullarni yuvish operatsiyalari deb nomlangan pul amaliyotlarining kelib chiqishini qonuniy tavsifini berish bo‘yicha turli uslublarga nisbatan talab yuqoriligicha qolmoqda. Xususan, FCA (Financial Conduct Authority) barcha kuchli banklarda Customer Due Diligence (CDD) va Enhanced Due Diligence (EDD) talab qiladi. 2022–2024 yillarda 30 dan ortiq bankka 400 million funt sterlingdan ortiq jarima solingan<sup>1</sup>, birgina RF oldingi yillarda jinoiy yo‘l orqali olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishga qarshi kurashish doirasida ishtirok etgan 100 tadan ortiq banklar lisenziyalaridan mahrum bo‘ldi. Bunda iqtisodiy zarar 91,0 mlrd. rubldan ortiqni tashkil etgan<sup>2</sup>. Tijorat banklarida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish funksiyasini samarali tashkil etishni qator zaruriy omillari mavjud bo‘lib, ular qatoriga moliyaviy xavfsizlikka nisbatan tahdidlarning kuchayishi, jinoiy daromadlarni qonuniylashtirishga imkon beradigan jahon moliya bozorlari xususan, offshor hududlarning mavjudligi kabilarni kiritish mumkin.

Globalashuv va sarmoyalarning transchegaraviy oqimining tezlashishi natijasida uyushgan jinoyatchilikning faollashuviga sharoit yaratish imkonini berib u tobora xalqaro tavsifga ega bo‘lib bormoqda. Rivojlangan davlatlarda jinoiy guruhlarining noqonuniy, jamiyat uchun eng xavfli holatlarini aniqlash, iqtisodiyotida xufyona iqtisodiyotning kengayish dinamikasini o‘rganish, tijorat banklari boshqaruvida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimini samarali tashkil etish bilan bog‘liq muntazam ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga yangi raqamli moliyaviy texnologiyalar va instrumentlarning shiddat kirib kelishi natijasi o‘laroq, qurol-yaroq, giyohvandlik va odam savdosi hamda transchegaraviy noqonuniy moliyaviy operatsiyalarning tobora kuchayib borayotganligi, tijorat banklari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish holatlarining barvaqt oldini olish va ularga barham berish masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish tizimini joriy etish bugungi kunning dolzarb masalasi bo‘lib qolmoqda. «O‘zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini

---

<sup>1</sup> Manba: <https://www.skillcast.com/blog/highest-fca-fines-2024>

<sup>2</sup> «Kyckr | News & Blog |.» <https://www.kyckr.com/resources/p-5608> (accessed Nov. 04, 2023).

rivojlantirish strategiyasida «pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulk bilan bogʻliq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning ichki nazorat xizmatlari samaradorligini mazkur tashkilotlar faoliyatining xususiyatidan kelib chiqqan holda tahlil qilish va tahlil natijalari boʻyicha ichki nazorat xizmatlari faoliyatini kuchaytirish boʻyicha takliflar ishlab chiqish»<sup>3</sup> Avvalo, ushbu islohotlarning tub zamirida Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ustuvor vazifa «Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak»<sup>4</sup> degan asosiy tamoyilga muvofiq barcha resurslar, imkoniyatlar xalqimiz manfaatlarini yoʻlida safarbar etilishi bugungi kunning muhim yoʻnalishlardan biri sifatida belgilab berilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida», 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son «2020-2025 yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida», Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6252-son «Oʻzbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi farmoni, 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son «Oʻzbekiston Respublikasida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi farmonlari va boshqa ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni maʼnaviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Oʻzbekiston bank tizimida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotini takomillashtirishning ilmiy-amaliy jihatlari E.S.Mekpor, J.Edwards, S.Wolfe, E.Misha, A.G.Koutoupis, K.Cyree, R.Arasa, R.Zulfikar, R.Gulati, D.Dahl, S.Velez, G.Grasshoff, A.Demirgüç-Kunt, C.B.Moss, R.Quick, O.S.Bezrodna, R.Ayadi, J.Birkenmaier, J.Bischof, M.Bai, H.Y.Hsiao, M.Karim, B.Basaran-Brooks, S.S.Thomas, A.Dill, A.S.Villar, A.G.Koutoupis va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida tadqiq etilgan kabi xorijlik iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida oʻrganilgan<sup>5</sup>.

<sup>3</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 iyundagi «Oʻzbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi PF-6252-son farmoniga I ilova. < <https://lex.uz/docs/5482727>>.

<sup>4</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. «Xalq soʻzi». [Elektron manba]. URL: <http://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyoevning-olij-mazhlisga-murozhaatnomasi>.

<sup>5</sup> Mekpor E.S. et al., «The determinants of anti-money laundering compliance among the Financial Action Task Force (FATF) member states,» *Journal of Financial Regulation and Compliance*, 2018; Edwards J. and Wolfe S. «The compliance function in banks,» *Journal of financial regulation and compliance*, 2004; Misha E., «The Compliance Function in Banks and the Need for Increasing and Strengthening its Role-Lessons Learned from Practice» *European Journal of Sustainable Development*, vol. 5, no. 2, p. 171, 2016; Koutoupis A.G. and Malisiovas T., «The effects of the internal control system on the risk, profitability, and compliance of the US banking sector: A quantitative approach» *International Journal of Finance & Economics*, 2021; Cyree K., «The direct costs of bank compliance

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ushbu mavzudagi ilmiy ishlar sanoqli bo‘lib, ularning asosiylari sifatida N.Jumayev, N.Karimov, M.Mirxayotov, D.Suyunov, X.Axmedova va boshqalar O‘zbekiston bank tizimida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotini takomillashtirish masalalari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishgan<sup>6</sup>. Lekin shuni alohida ta’kidlash lozimki, tijorat banklarida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish va uni O‘zbekiston tijorat banklarida samarali joriy etish muammolarini O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan alohida tadqiqot sifatida chuqur tahlil qilinmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasalarining ilmiy tadqiqot ishlar rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsion tadqiqot mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekistondagi tijorat banklarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotining moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy, amaliy va uslubiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

bank tizimida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishga doir nazariy-konseptual yondashuvlarni o‘rganish;

bank tizimida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

bank tizimida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotining xorijiy mamlakatlar tajribalarini tahlil qilish;

---

around new regulation» Journal of Financial Research, 2016; Arasa R. and Ottichilo L., «Determinants of know your customer (KYC) compliance among commercial banks in Kenya» 2015; Zulfikar R. et al., «Corporate governance compliance in banking industry: The role of the board,» Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity, vol. 6, no. 4, p. 137, 2020; Dahl D. et al., «Bank size, compliance costs and compliance performance in community banking» in Federal Reserve Bank of St. Louis, 2016; Velez S. et al., «Banking finance experts consensus on compliance in US bank holding companies: An e-Delphi study,» Journal of Risk and Financial Management, vol. 13, no. 2, p. 28, 2020; Grasshoff G. et al., «Transforming bank compliance with smart technologies» Boston Consulting Group BCG, 2017; Detragiache M.E. and Demirgüç-Kunt A., Basel core principles and bank risk: does compliance matter? International Monetary Fund, 2010; Moss C.B. and Suh D.H., «Effect of compliance cost on the supply of bank credit to agriculture: A differential approach» Am J Agric Econ, vol. 102, no. 2, pp. 713–726, 2020; Quick R. and Sayar S., «The impact of assurance on compliance management systems on bank directors’ decisions,» International Journal of Auditing, vol. 25, no. 1, pp. 3–23, 2021; Ayadi R. et al., «Does Basel compliance matter for bank performance» Journal of Financial Stability, vol. 23, pp. 15–32, 2016; Birkenmaier J. et al., «Bank compliance with national transaction account standards: Evidence from a mid-western metropolitan area» Journal of Consumer Affairs, vol. 56, no. 2, pp. 982–1003, 2022; Bischof J., «A Tale of Two Supervisors: Compliance with Risk Disclosure Regulation in the Banking Sector» vol. 39, no. 1, pp. 498–536, 2022.

<sup>6</sup>Xoshimov E.A. and Jumaev N.X., «Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor jihatlari» Молия ва банк иши, no. III, pp. 249–254, May 2020; Suyunov, D. X. «The main directions of development of the corporate governance system in Uzbekistan in modern conditions» Economics and Innovative Technologies 2019.4 (2019): 11; Suyunov, D. «Ways to introduce a modern control system for the development of joint stock companies» International Finance and Accounting 2020.3 (2020): 33., M.Mirxayotov «Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish» Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2020 y. X.Axmedova «Tijorat banklarida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yo‘llari» Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2023 y.

O'zbekistonda jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotining me'yoriy-huquqiy asoslarini o'rganish;

O'zbekiston bank tizimida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning amaliy holatini tahlil qilish;

bank tizimida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotining ekonometrik tahlillar orqali o'rganish;

O'zbekiston tijorat bank tizimida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishdagi muammolarni aniqlash;

O'zbekiston bank tizimida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish yo'llariga qaratilgan ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** banklarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotining moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, qiyosiy va tarkibiy tahlil, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik, ekonometrik va ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tijorat banklarida jismoniy shaxslarning pul tranzaksiyalarini miqdorlaridan kelib chiqib ularni «xavfsiz», «qoniqarli» va «xavfli» toifalarga ajratgan holda kechiktirish yoki muzlatib qo'yish amaliyoti taklif etilgan;

tijorat banklari amaliyotiga jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimi «Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish konveeri» orqali takomillashtirish taklif etilgan;

tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishda bank kapitali qiymatini kamida bir foizga oshishi bankning foizli daromadlari qiymatining kamida ikki foizga oshishiga xizmat qilishi ilmiy asoslangan;

tijorat bank tomonidan jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotini takomillashtirish asosida bank daromadlarini oshirishga yo'naltirilgan 2030 yilgacha bo'lgan prognoz ssenariylari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

tijorat bankning foizli daromadlari erkli o'zgaruvchilar hisoblangan mazkur bankning kapital qiymati va depozitlari qiymati o'zgaruvchi qisqa muddatli bog'lanishga ega bo'lib, erkli o'zgaruvchi bankning kapital qiymati bir foizga oshsa, erksiz bankning foizli daromadlari qiymati 2,20 foizga oshishiga olib keladi. Bankning depozitlarini qiymatini bir foizga oshishi bankning foizli daromadlari qiymatini 2,99 foizga kamayishiga olib kelishi aniqlandi.

«Mikrokreditbank» Aksiyadorlik tijorat bankining foizli daromadlari bugungi kunda 3022,2 mlrd. so'mni tashkil qilayotganligi, ushbu ko'rsatkich 2030 yilgacha sezilarli o'sishi kutilayotganligi, bankning depozitlar qiymati 2030 yilga kelib 20 foizga oshishi eng katta omil hisoblanaishi, shu boisdan, bankning foizlida daromadini tushushiga olib kelishiga sabab bo'layotganligi aniqlandi.

tijorat banklari tizimida subyektiv omillarning ta'sirini pasaytirish, moliyaviy monitoring qilish sifatini oshirish va mijozlarni identifikatsiyalash, nazoratni taqozo

etuvchi operatsiyalarni aniqlash, xabardor qilish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradigan tashkiliy-tarkibiy model «Mikrokreditbank» Aksiyadorlik tijorat banki amaliyotiga joriy etilgan. Mazkur qoidalar «Mikrokreditbank» Aksiyadorlik tijorat bank amaliyotiga joriy etilishi jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishda moliyaviy monitoring qilish sifatini oshirish va mijozlarni identifikatsiyalash, nazoratni taqozo etuvchi operatsiyalarni aniqlash, xabardor qilish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini bergan;

regulyator tomonidan tijorat banklarini keng ko'lamni tartibga solish mexanizmining joriy qilinishi mamlakatdagi tijorat bank tizimida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishga statistik jihatdan ahamiyatli va ijobiy ta'sir qilishi tijorat bankini tartibga solish mexanizmi bilan samarali nazorat tizimi o'rtasidagi to'g'ri proportsionallik ekonometrik usullar orqali aniqlangan va asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni taniqli iqtisodchi olimlarning tijorat banklari samaradorligini baholash xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilinganligi, ilg'or xorij tajribasi o'rganilganligi va umumlashtirilganligi, shuningdek, statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi va O'zbekiston tijorat banklari yillik hisobot ma'lumotlaridan olingani, shu bilan birga tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan banklarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotining moliyaviy mexanizmlari takomillashtirishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni mamlakatimiz banklarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotining moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalaniladi, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi hamda 2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida ko'rsatilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotining moliyaviy mexanizmlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tijorat banklarida jismoniy shaxslarning pul tranzaksiyalarini miqdorlaridan kelib chiqib ularni «xavfsiz», «qoniqarli» va «xavfli» toifalarga ajratgan holda kechiktirish yoki muzlatib qo'yish amaliyoti taklifi «Mikrokreditbank» Aksiyadorlik tijorat banki faoliyatiga joriy etilgan («Mikrokreditbank» Aksiyadorlik-tijorat bankining 2024-yil 04-dekabrda № 05-12/32702-son dalolatnomasi). Natijada «Mikrokreditbank» Aksiyadorlik tijorat bankida pul o'tkazmalarni va tranzaksiyalarni kechiktirish va muzlatib qo'yish amaliyoti joriy etildi hamda ro'yxatdan chiqarish va aktivlarni

muzlatishdan chiqarish bo'yicha vakolatli organlarning tijorat banklari bilan tezkor kommunikatsiya kanallari yo'lga qo'yish imkoniyati yaratilgan;

tijorat banklari amaliyotiga jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimi «Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish konveeri» orqali takomillashtirish taklifi «Mikrokreditbank» Aksiyadorlik tijorat banki amaliyotiga joriy etilgan («Mikrokreditbank» aksiyadorlik-tijorat bankining 2024-yil 04-dekabrda № 05-12/32702-son dalolatnomasi). Mazkur qoidalar «Mikrokreditbank» Aksiyadorlik tijorat banki amaliyotiga joriy etilishi jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish tizimining tashkiliy-uslubiy qoidalarini takomillashtirish imkonini bergan;

tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishda bank kapitali qiymatini kamida bir foizga oshishi bankning foizli daromadlari qiymatining kamida ikki foizga oshishiga xizmat qilishi mumkinligi taklifi «Mikrokreditbank» Aksiyadorlik tijorat banki faoliyati amaliyotiga joriy etilgan («Mikrokreditbank» aksiyadorlik-tijorat bankining 2024-yil 04-dekabrda № 05-12/32702-son dalolatnomasi). Mazkur taklif «Mikrokreditbank» Aksiyadorlik tijorat bankida ichki nazorat qoidalarida jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bo'yicha risklarni mijozlar to'plami kesimida, geografiyasi va tranzaksiya turlari bo'yicha baholashni yo'lga qo'yishi va aniqlangan risklar bo'yicha kengaytirilgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yilgan;

tijorat bank tomonidan jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotini takomillashtirish asosida bank daromadlarini oshirishga yo'naltirilgan 2030 yilgacha bo'lgan prognoz ssenariylari bo'yicha taklifi «Mikrokreditbank» Aksiyadorlik tijorat banki amaliyotiga joriy etilgan («Mikrokreditbank» Aksiyadorlik-tijorat bankining 2024-yil 04-dekabrda № 05-12/32702-son dalolatnomasi). Mazkur taklif «Mikrokreditbank» Aksiyadorlik tijorat banki tomonidan 2030 yilga mo'ljallangan bank umumiy strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy g'oya va xulosalari 1 ta nufuzli rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilmiy jurnallarida, 4 ta mahalliy ilmiy jurnallarda, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya ishi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 4 ta, shundan nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqolalar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tarkibi 136 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Bank tizimida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning nazariy – uslubiy asoslari va xorijiy davlatlar tajribalari»** deb nomlangan birinchi bobida korrupsiya holatlarini aniqlah va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning nazariy-konseptual yondashuvlari, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotida tijorat banklarning o‘rni va roli hamda bank tizimida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotining xorijiy mamlakatlar tajribalari o‘rganilgan. Tadqiqot oldiga qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda bob songida xulosalar shakllantirilgan.

Davlat va xususiy sektor faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashishda amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat xorijiy tajribalar asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish, balki ushbu sohada samarali tizim sifatida qo‘llanilib kelayotgan ma‘lum xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementisiya qilish hisoblanadi<sup>7</sup>.

Ulardan biri ushbu sohada keng qo‘llanilib kelayotgan samarali va ta‘sirchan vositalarning majmui bo‘lgan korrupsiya holatlari to‘g‘risida xabar berish mexanizmi sanalanadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, korrupsiya holatlari to‘g‘risida xabar berish mexanizmi o‘z ichiga korrupsiya holatlari to‘g‘risida xabar berish, kelib tushgan korrupsiya holatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qayta ishlash, xabar beruvchilarni himoya qilish, xabar beruvchilarni rag‘batlantirish, ayrim holatlarda xabar berish majburiyatini yuklash hamda xabar bermaganlik uchun javobgarlik choralarini belgilanishini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotlar natijalari ko‘rsatishicha, bank sektori eng xavfli tarmoq hisoblanadi. Ayni paytda, pul yuvish bilan shug‘ullanuvchilar yuqori darajadagi maxfiylikni saqlaydigan va zararsiz ko‘rinadigan usullardan foydalanishni afzal ko‘rishadi<sup>8</sup>.

Iqtisodchi A.Osipovning so‘zlariga ko‘ra, «jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimini nazorat qilish tijorat banklarida bankning risklarini aniqlash, baholash, konsalting, kuzatuv va hisobot berish orqali amalga oshiriladigan mustaqil faoliyatdir»<sup>9</sup>.

Ushbu yo‘naishda tadqiqot olib borgan olimlarning fikrlarini umumlashtirilgan holda iqtisodiy adabiyotlarda «nazorat» va «tekshirish» tushunchalarini izohlashda biz nazoratning mohiyatini batafsil tahlil qilib o‘tamiz va uning tekshirish tushunchasi bilan o‘zaro aloqasini keltiramiz (1-jadval).

<sup>7</sup> Primakov D. Compliance practices: anti-corruption, banking compliance, sanction compliance and asset tracing – M.: Infotropic media, 2019 – P.36. [Elektron manba]. URL: <https://shop.infotropic.ru>.

<sup>8</sup> J. Said, E. K. Ghani, N. Omar, and S. N. S. Yusuf, “Money laundering prevention measures among commercial banks in Malaysia,” International Journal of Business and Social Science, vol. 4, no. 5, 2013.

<sup>9</sup> Осипов А. В. Некоторые аспекты этимологии термина "комплаенс-контроль" в банковском праве. БАНКОВСКОЕ ПРАВО. - 2006. - №

**«Nazorat» tushunchasining iqtisodiy mohiyati va uning «tekshirish»  
tushunchasi bilan o‘zaro aloqasi<sup>10</sup>**

<b>№ t/r</b>	<b>Muallif</b>	<b>Tushunchalarning mohiyati («nazorat» va «tekshiruv» tushunchalarning o‘zaro aloqadorligi)</b>
1.	Antipova O.N.	Muallif produnseal tartibga solish va nazorat qilish vazifalariga uzluksiz nazorat orqali bankda kredit tashkilotining to‘lovga qobiliyatsizligiga va bankrotlikga keltirishi mumkin bo‘lgan muammolarning yuzaga kelish sabablarini dastlabki bosqichda aniqlashni kiritadi.
2.	Bratko A.G.	Muallifning fikricha, bank nazoratining mohiyati kredit tashkiloti qarorlari va harakatlarining bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlari va Rossiya Bankining me‘yoriy hujjatlariga muvofiqligini tekshirishdan iborat.
4.	Erpileva N.Yu.	Muallif shunga e‘tibor beradiki, nazoratning muhim vazifasi – bu bank tiizmida risklarni boshqarishdir. Muallif nazoratni nazorat qiluvchi organlari tomonidan kredit tashkilotlari me‘yoriy hujjatlarga amal qilishi va ularni ijro etishi ustidan kuzatish va qonunbuzarlik aniqlangan hollarda ularga nisbatan bank huquqida ko‘zda tutilgan jazo choralarini qo‘llash sifatida izohlaydi.
5.	Isaeva E.A.	Muallif bank nazoratini markaziy banklar tomonidan bank faoliyatini tekshirish sifatida ko‘rib chiqadi. Muallifning fikricha, nazorat banklar faoliyatida qonunchilik rejimini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi sifatida qaraydi.
6.	Kazakbieva L.T.	Muallifning ta‘kidlashicha, bank nazorati pul-kredit munosabatlari sohasida jamoat manfaatlarini himoya qilish maqsadi uchun mavjud. Shu bois bank nazorati iqtisodiy va davlat-huquqiy jihatlarini o‘zida qamrab oladi.
7.	Polyakov V.A. va Moskovkina L.A.	Mualliflarning ta‘kidlashicha: «Banklar faoliyatini tekshirish alohida banklarning ishonchligini va barqarorligini ta‘minlash maqsadida olib boriladi va banklar tomonidan o‘z faoliyatini amaldagi qonunchilik va yo‘riqnomalarga muvofiq holda amalga oshirish ustidan to‘liq va uzluksiz nazoratni ko‘zda tutadi».
9.	Mirxayotov M.	Jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini takomillashtirish maqsadida milliy PYU/TMQK tizimi modelining tashkiliy-uslubiy qoidalari ishlab chiqilgan; mamlakat PYU/TMQK tizimini tahlil qilishda faoliyat ko‘rsatayotgan kredit tashkilotlaridagi Markaziy bank tomonidan baholash uslubiyati ishlab chiqilgan.
10.	Ahmedova X.	Respublikamiz tijorat banklarida komplayens funksiyasi mustaqilligini ta‘minlash maqsadida Bank kengashi tarkibida Komplayens-nazorat qo‘mitasi tuzilishi, mazkur qo‘mitaga bevosita bo‘ysunadigan Komplayens departamenti va uning tarkibiy tuzilmalari (komplayens bo‘limi) tashkil etilishi taklif etilgan.

<sup>10</sup> Tegishli adabiyotlardan foydalangan holda muallif tomonidan tuzilgan.

Rus olimlaridan S.A.Begulenko o'z ilmiy ishlarida quyidagi o'ziga xos jarayonlarni, ya'ni kompaniyalarda noqonuniy yo'llar orqali daromadlar olishga qarshi turish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish, kompaniyaning amaldagi qonunchilikka muvofiq ish faoliyatini olib borishligini ta'minlaydigan normativ-hujjatlar va qoidalarni ishlab chiqish, axborot oqimlarining xavfsizligini himoya qilish, firibgarlik va korrupsiyaga qarshi kurashish, xodimlar uchun axloqiy me'yorlarni o'rnatish va boshqalarni o'zi ichiga olishi mumkin degan fikrni bildiradi<sup>11</sup>.

Ushbu yo'nalishda banklar holati yuzaudan to'xtalib o'tadigan bo'lsak dunyo iqtisodiyotining rivojlanishida markaziy rolni o'ynashi bilan bir qatorda dunyodagi eng «mo'rt» biznes modellardan biri hisoblanadi. Mana shu ikki bir-biriga qarama-qarshi tushunchalarning bank biznesi uchun xarakterli bo'lishi ko'plab inqirozlarning ildizi nega banklar bilan bog'liqligini izohlay oladi. Bular tashqari, banklar tuzilmasining murakkabligi va kattaligi ham tijorat banklari bilan bog'liq risklarni mahalliy chegaralardan chiqib, xalqaro darajadagi qamrovini oshirishi mumkin. Yuqorida keltirilgan uch omil nega tijorat banklari butun dunyo miqyosida keng qamrovli regulyasiyalar uchun makon ekanligini anglashimizga yordam beradi. Ayniqsa, 2009-yilda sodir bo'lgan jahon moliyaviy inqirozdan keyin mahalliy va xalqaro regulyatorlar tijorat banklari korporativ boshqaruv tizimi, risk menejment tizimi va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimini nazorat qilish orqali bank biznesi tabiatidagi risklarni minimallashtirishga erishishni o'zlarining ustuvor masalasi sifatida ko'rmoqdalar.

Bank faoliyatida tartibga solish va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish qoidalari shu darajada murakkablashib va mukammallashib bormoqdaki, birgina AQShning bank faoliyatiga doir tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarini o'qish uchun 5700 soat zarur bo'ladi (har daqiqada 300 ta so'z o'qish tezligida)<sup>12</sup>. Shuningdek, Buyuk Britaniyada moliyaviy institutlar jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimi tufayli har bir funt sterling to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar uchun 4.2 funt sterling egri xarajatlar qilishi tadqiqotlarda o'z aksini topgan<sup>13</sup>.

BMTning baholashicha, har yili 800 mlrd.dan 2 trln.AQSh dollargacha noqonuniy daromad yashiriladi, bu esa jahon yalpi ichki mahsulotining 2-5 foizni tashkil etadi. G'arb davlatlarda xufiyona sektorning YaIMdagi ulushi quyidagicha baholanadi: Shveysariyada bu ko'rsatkich 8 foizga; AQShda 8,9 foiz, Kanada, Fransiya, Germaniyada – 14,9 foizdan 16,3 foizgacha, Italiyada – 27,8 foiz, Gresiyada rasmiy YaIMdan qariyb 30 foiz, Rossiyada – 27 foizdan 46 foizgacha<sup>14</sup>, O'zbekistonda esa Iqtisodiyot vazirining bergan ma'lumotiga ko'ra 45 foiz (turli manbalarga ko'ra) ni tashkil etadi.

<sup>11</sup> С.А.Бейгуленко “Организация комплаенс деятельности современных фармацевтических корпораций в России”. журнал “Экономика и бизнес”, № 3, 2016 год.


<sup>12</sup> «The Time Cost of Regulation | MyGovCost | Government Cost Calculator» <http://www.mygovcost.org/2017/04/10/the-time-cost-of-regulation/> (accessed Sep. 28, 2022).

<sup>13</sup> J. R. Franks, S. M. Schaefer, and M. D. Staunton, «The direct and compliance costs of financial regulation» J Bank Financ, vol. 21, no. 11–12, pp. 1547–1572, 1997.

<sup>14</sup> Manba: [www.worldbank.com](http://www.worldbank.com) – rasmiy sayt ma'lumotlari.

Global Financial Integrity (GFI) Amerika tadqiqot instituti tahlilchilarining fikricha, Rossiya Federasiyasining xufiyona iqtisodiyoti har yili YaIMdan 46 foiz atrofida baholanmoqda. Oxirgi 15 yil mobaynida Rossiyadan noqonuniy tarzda giyohvand moddalari, qurol-yarog‘ va odam savdosi orqali olingan daromad va mablag‘lar soliqlardan yashirilgan holdagi pora ko‘rinishida 200 mlrd.AQSh doll. dan ortiq pul mablag‘lari noqonuniy chiqib ketgan. Tadqiqot mualliflarining ma‘lumotlariga ko‘ra iqtisodiyotning xufiyona iqtisodiyoti norasmiy moliya oqimlarini keltiradi: xufiyona iqtisodiyotning 1 foizga o‘shishi sarmoyaning noqonuniy harakatlanishining 7 foizga oshishiga olib keladi<sup>15</sup>.

Ushbu ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, rasmda keltirilgan davlatlar ichida hufiyona iqtisodiyotning YaIMdagi salmog‘i bo‘yicha O‘zbekiston eng katta ulushga ega. Hattoki, qo‘shni mamlakatlardan ham ushbu yo‘nalishda ilgari ketganligimizni kuzatishimiz mumkin. Albatta, ushbu ma‘lumotlar hufiyona iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha keskin choralarini ko‘rishimizni talab etadi. Bizning fikrimizcha, hufiyona iqtisodiyot ulushini o‘rta muddatda 2 barobar qisqartirish maqsadida kompleks chora-tadbirlar va tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish lozim (1-rasm).



**1-rasm. Jahonda YaIMga nisbatan hufiyona iqtisodiyot darajasi<sup>16</sup>, 2023 yil holatiga**

2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonning davlat qarzi bir yil davomida 5,7 mlrd dollarga o‘shib (reja qilingan 2,9 mlrd dollar o‘rniga), 34,9 mlrd dollarga yetdi. Olti yil ichida qarz 3 baravar oshdi. O‘tgan yili davlat qarziga xizmat ko‘rsatish xarajatlari keskin ortdi. 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonning davlat qarzi o‘tgan yil davomida 5,7 milliard dollarga ko‘payib,

<sup>15</sup> <https://gfintegrity.org> – rasmiy sayt ma‘lumotlari.

<sup>16</sup> Ma‘lumotlar O‘zbekistondagi BMTning rivojlanish dasturini tahliliy ishlariga asoslangan.

34,9 milliard dollarga yetdi. Bu kutilgan ko'rsatkichdan (32,1 milliard dollar) 2,8 milliard dollarga ko'proq.<sup>17</sup>

Jahon bankining ma'lumotlarga ko'ra, qo'shni Rossiya davlatining xufiyona iqtisodiyoti «Katta ettitalik» ka kirgan boshqa davlatlarga nisbatan 3,5 barobar ko'proq. Bundan tashqari, xufiyona iqtisodiyotning hajmlari va noqonuniy pul oqimlari oxirgi 18 yil mobaynida keskin ravishda o'smoqda, bunga siyosiy boshqaruvning samaradorligi pastligi va soliqni to'lashdan bosh tortish holatlari keng tarqalganligi kabilar sabab bo'lmoqda, bu o'z navbatida, mamlakatda iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka putur etkazadi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra oxirgi o'n yil davomida mamlakatdan sarmoyaning oqib ketishi 500 mlrd.AQSh doll.dan ko'pini tashkil etgan, shulardan Rossiya to'lov balansining «shubhali operatsiyalar» moddasiga o'rtacha 40 foidan ortiq to'g'ri keladi. Shunday qilib, Rossiya iqtisodiyotidan Rossiya sog'liqni saqlash, ta'lim va infratuzilma tizimiga investisiya qilinishi mumkin bo'lgan yuzlab milliard AQSh doll. miqdorda mablag' olib qo'yilgan<sup>18</sup>.

Dissertatsiyaning «**O'zbekiston bank tizimida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotining joriy holati**» deb nomlangan ikkinchi bobida Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotining me'yoriy-huquqiy asoslari, O'zbekiston bank tizimida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning amaliy holati va tahlillari hamda

ATB «Mikrokreditbank»ning tizimida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish amaliyotining ekonometrik tahlillari amalga oshirilgan. Bob so'ngina umumlashtirilgan xulasalar shakllantirilgan.

Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish, ya'ni pul yuvish (money laundering)ga qarshi kurashishning me'yoriy-huquqiy asoslari mamlakatlarning milliy qonunlari, xalqaro shartnomalar va tashkilotlar tomonidan belgilangan normativ hujjatlar orqali tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimida ham bunday kurashish uchun qator qonunlar va me'yoriy hujjatlar mavjud. Quyidagi asosiy hujjatlar va tamoyillarni keltirish mumkin:

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi: O'zbekistonda jinoyatlarni oldini olish va ular bilan kurashishning asosiy huquqiy hujjati bu Jinoyat Kodeksidir. Bu kodeksda jinoiy daromadlarni legallashtirish, ya'ni pul yuvish, shuningdek, uni amalga oshirganlik uchun jazo choralarini belgilovchi moddalar mavjud<sup>19</sup>.

Pul yuvish va teroristik moliyalashning oldini olish to'g'risidagi qonun: O'zbekistonda pul yuvish va teroristik moliyalashga qarshi kurashish uchun «Pul yuvish va teroristik moliyalashning oldini olish to'g'risidagi» alohida qonunlar mavjud. Ushbu qonunda pul yuvishga oid harakatlar va ularning jinoyat sifatida baholanishi, shuningdek, tegishli organlar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar ko'rsatilgan<sup>20</sup>.

<sup>17</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/30/gov-deb/> - rasmiy sayt ma'lumotlari.


<sup>18</sup> <https://www.cbr.ru> – rasmiy sayt ma'lumotlari.

<sup>19</sup> <https://lex.uz/docs/-111453?ONDATE=17.02.2024> – rasmiy sayt ma'lumotlari.

<sup>20</sup> <https://lex.uz/docs/-111453?ONDATE=17.02.2024> – rasmiy sayt ma'lumotlari.

Shuningdek, «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonunining 26-moddasiga asosan davlat organlari xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar qilish majburiyati belgilangan bo'lsa-da, ammo ushbu majburiyatni bajarilishi ustidan idoraviy yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan biror bir nazorat turi o'rnatilmagan.

Umuman olganda, tijorat banklarida noqonuniy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bosqichlari mavjud bo'lib, doimiy takomillashtirib borishni talab etadi. Ayni paytda, raqamli texnologiyalar tufayli to'lovlar sohasida yuzaga kelgan yangi imkoniyatlar bois nazorat risklarining turlari ko'payib, ularni boshqarish yanada murakkablashib bormoqda (2-rasm).



**2-rasm. Tijorat banklarida noqonuniy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bosqichlari<sup>21</sup>**


O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Istanbul harakatlar rejasining 4-raund 14,7 tavsiyasida<sup>22</sup> ham ishtirokchi davlat tomonidan korrupsiya holatlari to'g'risida xabar berish va xabar beruvchilarni himoya qilish qoidalarini qabul qilishi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasida korrupsiya holatlari to'g'risida xabar berish mexnazmi sifatida barcha uchun umum majburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinishini, bu sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi ilk qadam deb e'tirof etishimiz lozim. Yuqoridagi Qonunda korrupsiya holatlari to'g'risida xabar berish majburiyati va xabar beruvchi shaxslarni himoyasi nazarda tutilgan

<sup>21</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>22</sup> URL: [https://www.oecd.org/corruption/acn/OECD-ACN-Uzbekistan-4th-Round\\_Monitoring-Report-2019-RUS.pdf](https://www.oecd.org/corruption/acn/OECD-ACN-Uzbekistan-4th-Round_Monitoring-Report-2019-RUS.pdf)

bo‘lib, mazkur shaxslarni rag‘batlantirishni tartibga soluvchi qonun osti hujjati ham qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 829-son qarori bilan Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom<sup>23</sup> tasdiqlangan.



### 3-rasm. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va moliyaviy institutlar tomonidan taqdim etilgan tranzaksiyalarning bo‘yicha hisobotlar soni<sup>24</sup>

Moliyaviy institutlar tomonidan shubhali deb topilgan tranzaksiyalarning guruhlar va yillar kesimida keltirilgan. Rasm ma‘lumotlaridan ko‘rish mumkinki, 2018-yilgacha birinchi guruhga mansub tranzaksiyalarning sezilarli darajada kam bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yildan keyin birinchi guruhga tegishli tranzaksiyalarning soni bir necha barobarga oshgan. Ikkinchi guruhga tegishli tranzaksiyalarning yillar kesimida kamayishiga tijorat banklari MHIK standartlariga ko‘ra shubhali deb topish mezonlarini yaxshiroq anglab boshlagani bilan izohlash mumkin. 2023-yilgacha banklar o‘zlaridan ma‘suliyatni so‘qiq qilish va risklarni kamaytirish uchun ko‘proq tranzaksiyalarni jinoiy daromadni legallashtirish yoki terrorizmni moliyalashtirishda shubhali deb topishgan bo‘lsa, keyingi yillarda bu ko‘rsatkich pasaygan. Tijorat banklari tomonidan birinchi guruhdagi tranzaksiyalarning oshishiga sabablardan biri mamlakatning MDH dagi moliyaviy nazorat organlari boshliqlarining Kengashiga a‘zo bo‘lishi bilan bog‘liq (3-rasm).

Bugungi kunda, mamlatimiz banklarini daromadlari ortib borishi bilan bir qatorda jinoiy jadaromadlarni legallashtirish masalasiga ham keng tuhtalib o‘tilmoqda. So‘nngi yillarda O‘zbekistonda tijorat banklari tizimida jinoiy

<sup>23</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 829-son qarori (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020 y., 09/20/829/1693)

<sup>24</sup> EAG hisobiti asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

daromadlarini nazorat qilish va ularni legallashtirish masalalariga hukumatimiz tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Biz tadqiqotimizda «Mikrokreditbank» ATBning daromadlariga ta'sir qiluvchi omillarining ta'siri ekonometrik model asosida tahlil qilingan holda 2030 yilga daromadlari prognozi qilingan. Jumladan, Tadqiqotimizni mazkur paragrafda «Mikrokreditbank» ATBning daromadlari, xususan foizli va foizsiz daromadlariga ta'sir qiluvchi omillarning avtoregressiv taqsimlangan lag (ARDL estimation) yordamida ekonometrik modellashtirish nazarda tutilgan. Sog'liqni saqlash sohasi xarajatlarni o'zgarishiga ta'siri qiluvchi omillar qilib quyidagi omillar tanlangan.

«Mikrokreditbank» ATBning foizli daromadlari ta'sir qiluvchi omillar bankning aktivlari, kreditlari, kapitali va depozitlarini ta'siri darajasi o'rtganilgan. Xususan, tobe o'zgaruvchi sifatida bankning foizli daromadi tanlangan, mustaqil o'zgaruvchilarga esa, bankning aktivlari, kreditlari, kapitali va depozitlari tanlanib va unga ta'sir qiluvchi mustaqil o'zgaruvchilarni ta'sirini ekonometrik model asosida baholandi. Tanlangan ma'lumotlar bazasi 2018 yildan 2024 yillarni chorakli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlar asosida bankning daromadlarini o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar hisoblangan aktivlari, kreditlari, kapitali va depozitlari asosida murakkab ekonometrik usullarga asoslangan avtoregressiv taqsimlangan lag (ARDL) modeli shakllantirildi.

Tadqiqotdamizda investisiya fondiga ta'sir qiluvchi omillar orqali avtoregressiv taqsimlangan lag (ARDL) modelini shakllantirishda quyidagi bosqichlarni amalga oshirildi. Erkli o'zgaruvchini hisoblangan bankning foizsiz daromadlari xajmi (*nic*) va erksiz o'zgaruvchilarni esa, bankning aktivlari (*as*), kreditlari (*cr*), kapitali (*ca*) va depozitlari (*dep*) qilib belgilangan. Bankning foizsiz daromadlari hajmi ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini quyidagi sodda matematik formula ko'inishida ifodalaymiz.

$$NIC = f(AS, CR, CA, DEP,)$$

Bu erda,

*NIC* – «Mikrokreditbank» ATBning foizsiz daromadlari jami;

*AS* – «Mikrokreditbank» ATBning aktivlarining jami;

*CR* – «Mikrokreditbank» ATBning kreditlarining jami;

*CA* – «Mikrokreditbank» ATBning kapitalaning jami;

*DEP* – «Mikrokreditbank» ATBning depozitlarining jami.

O'tkazilgan kengaytirilgan Dikki-Fuller shuni ko'rsatadiki, bankning foizsiz daromadlari ko'rsatkichi birinchi ayirmada barqaror hisoblanib, ushbu ko'rsatkichning ehtimollik darajasi 5 foizdan kichik bo'lgani uchun birinchi ayirma gipotezasini qabul qilamiz. Unga asosan bank aktivlarining birinchi ayirmada statistik muhimligi 5 foizdan kichiki bo'lib, stasionarlikligini ishonchligi darajasi 95 foiz ishonchli hisoblanadi. Ushbu bankning depozitlari jami ko'rsatkichlari birinchi ayirmada ham barqaror bo'lib, mazkur ko'rsatkichning statistik muhimligi 5 foizdan kichik bo'lib, barqarorligini ishonchligi darajasi 95 foiz ishonchli ekanligini ko'rsatadi. O'zgaruvchilarining barqarorligini aniqlashda kengaytirilgan Dikki-Fuller yagona ildiz testidan tashqari, Fillips-Perron testlari ham mavjud bo'lib, yuqoridagi jadvalda Fillips-Perron yagona ildiz testini o'tkazganimizda bankning foizsiz daromadlari jami, aktivlari jami va depozit jami ko'rsatkichlari birinchi ayirmada barqaror bo'lib, ularining statistiki muhimligi 5 foizdan kichiki bo'lib,

nolinchi gipotezaga asosan ushbu ikkala ko'rsatkichlarning trendi stasionar hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval


**Birlik ildiz testi (unit root test)**

O'zgaruvchilar	Kengaytirilgan Dikki-Fuller testi (ADF)		Fillips-Perron testi (PP)	
Birinchi ayirma				
	konstant (constant)	trend (trend)	konstant (constant)	trend (trend)
$\Delta ln ic$	-3.575077**	-3.752309**	-2.915775**	-2.719938**
$\Delta ln ca$	-2.960401**	-2.866201**	-2.935196**	-2.866201**
$\Delta ln dep$	-2.923032**	-2.818594**	-2.896451**	-2.818594**

\*\*\* 1% da statistik muhimligini, \*\*5% da statistik muhimligini, \*10% da statistik muhimligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, «Mikrokreditbank» ATBning foizsiz daromadlariga ta'sir qiluvchi omillarining dinamik dinamik qatorlar ma'lumotlarini barqarorlikka (Augmented Dickey-Fuller (ADF) testga tekshirganimizda bankning foizsiz daromadi, aktivlarining jami va depozitlarining jami ko'rsatkichlari birinchi ayirmada barqaror hisoblanadi. Ushbu bankning foizsiz daromadi, aktivlarining jami va depozitlarining jami ko'rsatkichlari ma'lumotlari trend asosida barqarorligini kengaytirilgan Dikki-Fuller testini o'tkazganimizda, birinchi ayirmada ushbu ko'rsatkichlarning trendlari barqarorligi aniqlandi.

SUSUM testidan ko'rinib turibdiki, o'zgaruvchilarning qoldiqlari umumiy yig'indisi barqaror hisoblanadi. Bundan tashqari, o'zgaruvchilarning qoldiqlari kvadratlari yig'indisi ham barqaror hisoblanadi. Chunki, qoldiqlarni intervali statistik muhimlik darajasi besh foizlik interval oralig' bilan chiqib ketmagan. SUSUM testi natijasidan kelib chiqqan holda shakllantirilgan ekonometrik model uzoq va qisqa muddatli prognozlarni amalga oshira oladi (4-rasm).



**4-rasm. Qoldiqlarning umumiy yindisini SUSUM testi<sup>25</sup>**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, avtoregressiv taqsimlangan lag (ARDL) modelida olib borilgan chuqur ekonometrik tahlil natijasi erksiz o'zgaruvchi

